



## BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA OILA, MAKTAB VA MAHALLANING O'RNI

*Abduqodirova Nazira Xoliknazarovna*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi*

*Shoymatova Gulnoza G'ulom qizi*

*Guliston davlat universiteti "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" (boshlang'ich ta'lim)  
magistrati, 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada oila, maktab va mahallaning bola tarbiyasidagi o'rni, bola tarbiyasida buyuk insonlarning fikrlaridan foydalanish yo'llari, oila tarbiyasi—bu umuminsoniy jarayonn ekanligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, farzand tarbiyasi, jamiyat, sog'lom muhitt.

Oila va jamiyat bir-biriga chambarchas bog'liq tushuncha bo'lib, jamiyatning o'zi ham oilalardan tashkil topadi. Oila esa o'z o'rnida jamiyat bag'rida vujudga keladi, rivojlanadi. Ayni paytda oilaning jamiyatda o'z vazifalari mavjud. Oilaning mohiyati va vazifalari dunyodagi barcha xalqlar uchun bir xildir. Lekin uning tashkil topishi, taraqqiy etishi va oiladagi vazifalarni bajarish jarayonlari har bir xalqda alohida, o'ziga xos xususiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonunida oilaning jamiyat, davlat oldidagi mas'uliyatini anglab yetadigan komil insonni tarbiyalashdagi rolga alohida e'tibor berildi. Bu borada «Oila-mahalla va maktab» dasturining yaratilishi muhimdir. Oilada bola tarbiyasini yo'lga qo'yishda mahallaning roli kattadir. Qadimdan o'zbek xalqi mahalla-jamoatchilik bilan hamjihatlikda yashab, oilaviy urf-odat va an'analami ular ishtirokida, ular bilan bamaslahat o'tkazganlar. Mahalla kishilarni birlashtiradigan, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jamoa vazifasini bajarib kelgan.

Oila o'z navbatida o'quv-tarbiya jarayonini qayta qurishda maktabga yaqindan yordam berib, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyaning barcha jabhalarini egallashlari uchun maktab jamoasiga yaqindan ko'maklashadi. Shuning uchun ham oila, maktab va mahalla hamkorligi masalasi hozirgi davrning asosiy talabidir. Maktab tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning pedagogik jihatdan malakali, maqsadga muvofiq omillariga hamda keng imkoniyatlariga ega. Maktabdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar pedagogik-psixologik qoidalarga amal qilinmagan, maktab, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy jarayonidagi talabi bir xilda bo'lmagan taqdirda oilada ayrim hollarda tarbiyasi og'ir bolalar paydo bo'ladi, murakkab muammolar yuzaga keladi. Bunday holatning oldini olishning muhim vositasi oila-mahalla va maktabning hamkorlik dasturi asosida ta'lim-tarbiyaviy ish olib borishni ta'minlashdan iboratdir.

Har bir ota-ona o'z farzandining tarbiyasi uchun javobgar hisoblanadi. Farzandlarimizning tarbiyalashning muhim shartlari oilalarning mustahkam, ma'naviy sog'lom asosda qurilganligi, ayniqsa, ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishidir. Ota-onalar farzandining bugungi birinchi muallimi hisoblanadi. Chunki farzandga til o'rganish, kitob o'qishga qiziqtirishi aynan oiladan, keyin esa bunga maktab davomchi bo'ladi. Hozirgi kunda farzandlarimizning har qanday insoniylikdan yiroqlashtiradigan illatlardan asrash uchun ularni ilm olishga, kitob o'qishga qiziqтира



bilish lozim. Farzandni tarbiyasida har bir ota-ona o'z mas'uliyatini har bir daqiqa his qilib yashashi lozim.

Oilada sog'lom muhit mavjud bo'lgandagina, ularda har tomonlama sog'lom, barkamol inson shakllanadi. Yoshlar tarbiyasi xususan jismonan baquvvat, aqlan sog'lom, umuminsoniy madaniyat, darajasi yuqori, zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lgan kelajak avlodni voyaga yetkazishda oila, maktab va mahallaning tutgan o'rni alohidadir.

Oilada agar farzand yaxshi tarbiya topgan bo'lsa albatda bu bola ota-onasining qadriga yetadi va uni qadrlaydi. Shu o'rinda **Sundar Pichaining** quyidagi so'zlarini eslab o'tsak bo'ladi - "*Ota-onam boshqa millionlab ota-onalar kabi, topgan-tutganlarini, umrlarini farzandlarining ta'lim olishi va baxtli hayot kechirishi uchun sarf qilganliklari tufayli ham shu darajaga etishdim*". Demak bu yaxshi tarbiya topgan farzandlarning fikrlaridan namuna.

Farzand tarbiyasi haqida buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida ham muqaddas kitoblarimizda ham o'ziga xos fikr-mulohazalar bildirgali diqqatga sazovordir.

Xalq donishmandlari oila muammosi va tarbiyasi haqidagi qarashlari juda uzoq tarixiy ildizga egadir. Xalq og'zaki va yozma yodgorliklarida: maqol, hikmat, ertak, aytishuvlarda oila, ota-ona, oilaviy barqarorlik o'zaro munosabat masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Javhar Zamindar farzand tarbiyasi haqida shunday so'zlarni qoldirgan.

***Ota-ona behad bo'ladi xursand,***

***Farzanding bo'lolsa munosib farzand!***

Oila va undagi tarbiya usul, vosita va omillari ko'proq yozma pandnomalarda; Kaykovusni Qobusnoma», «Saodatnoma», Zahiriddin Muhammad Bobuming «Bobumoma»si, «To'ti shoxnoma», «Odobnoma» kabi asarlarida oila muammosiga doir masalalar ilmiy va nazariy, amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Oila tarbiyasidagi bolalar hayotini to'g'ri uyushtirish, ularni vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota-onalar o'z farzandlariga uqtirislilari lozim.

Oila tarbiyasi masalalari bo'yicha **Abu Ali Ibn Sino** «**Tadbir al-manozil**» nomli asarini yozgan. Unda olim ota- onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritgan. Asarda oilada ota-onaning vazifasi va burchiga va oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa, ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tishimiz kerakki, oilada farzand dunyoga kelgandan boshlab oilaning jamiyat oldida javobgarligi kundan kunga ortib boradi. Chunki o'sib kelayotgan avlodning taqdiri ana shu muammoning hal qilinishi bilan uzviy ravishda chambarchas bog'liq ekanligini unutmashimiz kerak. Yana shuni qayd qilishimiz kerakki yurtimizni qaysi go'shasida oila, mahalla va maktab hamkorligi yaxshi ish olib borsa o'sha joyning farzandlari o'qimishli, mehnatsevar va odoblidir. Buni tariximizdan ham bilib olsak bo'ladi.

### **Foydalanagan adabiyotlar**

1. O.Hasanboyeva, D.Xoliqov va boshqalar. Oila pedagogikasi. Toshkent.2007-yil.
2. Khaliqnazarovna, A. N. (2019). FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY OF PRESCHOOL CHILDREN. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
3. <http://www.ziyouz.com/index.php.option.com>